

**2022-2023 o‘quv yilida Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida
1 yil davomida stajirovka o‘tash uchun talabalar o‘rtasida onlayn tarzda
o‘tkaziladigan og‘zaki suhbatni baholash
MEZONLARI***

Tanlov ikki bosqichda og‘zaki suhbat asosida o‘tkazilishi hamda har bir bosqichda har bir talabaga 10 daqiqa vaqt ajratilishi belgilangan.

I BOSQICH

Xitoy tilidan og‘zaki imtihon. Jami: 80 ball

I qism:

1. Berilgan so‘z birikmalarni o‘qing (10 so‘z birikmasi*2daqiqa=20 ball)

Baholash: To‘g‘ri o‘qilgan xatosiz so‘z birikmalari uchun 2 ball, agar so‘zdagi xitoycha ohanglari noto‘g‘ri talaffuz qilinsa 0.5 ball olib tashlanadi.

2. Quyidagi so‘zlardan gap tuzing (5jumla*4daqiqa=20 ball)

Misol : 汉语 东方大学 学习 我 在

我在东方大学学习汉语

Baholash: har bir to‘g‘ri tuzilgan jumla uchun 4 ball; 1 so‘z noto‘g‘ri tartibda bo‘lsa 1 ball olib tashlanadi, 2 so‘z noto‘g‘ri bo‘lsa 2 ball, 3 so‘zdan ortiq bo‘lsa 2 ball olib tashlanadi. Gap noto‘g‘ri tartibda tuzilsa ball berilmaydi.

II qism:

3. O‘z-o‘zini tanishtirish (10 ball) 1 daqiqa.

Baholash: Talabalar asosan tilning ravonligi, grammatikasi, talaffuzi va intonatsiyasi, mazmunini tashkil etish kabi jihatlari bo‘yicha baholanadi. A‘lo o‘zlashtirgan talabalar 8-10 ball, o‘rtacha 5-7 ball, past darajada esa 5-7 ball.

4. Mavzuni bo‘yicha gapirib berish (30 ball) 2 daqiqa.

Baholash: Talabalar asosan mavzu bilan chambarchas bog‘liqligi, nutqning ravonligi, grammatik xatolar bor-yo‘qligi, talaffuz va intonatsiya me‘yoriyligi kabi jihatlardan tekshiriladi.

1. Mavzu haqida ravon so‘zlab berish, berilgan savollarni aniq tushunish va tutilmasdan javob berish 26-30 ball;

2. Berilgan mavzuni qisqa pauzalar bilan so‘zlab berish, berilgan savollarni aniq tushunish va biroz tutilishlar bilan javob berish 20-25 ball;

3. Berilgan mavzuni uzun pauzalar bilan soʻzlab berish, berilgan savollarni qisman tushunish va tutilishlar bilan javob berish 5-10 ball;

4. Berilgan mavzuni qisqacha soʻzlab berish, berilgan savollarni takrorlardan keyin qisman tushunish va tutilishlar bilan javob berish 1-4 ball;

5. Berilgan mavzuni soʻzlab berolmaslik, berilgan savollarga umuman tushunmaslik va javob berolmaslik 0 ball.

II BOSQICH

Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha og'zaki suhbat. Jami: 20 ball. (10 daqiqa)

Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha og'zaki suhbat talabalar bilan mamlakatimiz tarixi, madaniyati, adabiyoti, mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati, O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va Tarqqiyot strategiyasi mazmuni va mohiyati, O'zbekiston va Xitoy hamkorlik aloqalari, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, shu jumladan, xitoyshunoslik sohasi rivojlanishi to'g'risida o'tkaziladi.

Og'zaki suhbat quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Berilgan savol yuzasidan talaba to'liq ma'lumotga ega bo'lib, mavzu bilan bog'liq dalillarni keltira olsa hamda o'z fuqarolik pozitsiyasidan turib javob bera olsa - 16-20 ball.

2. Berilgan savol yuzasidan qisman ma'lumotga ega bo'lib, mavzu bilan bog'liq dalillarni bir qadar chalkashtirsa - 10-15 ball.

3. Berilgan savol yuzasidan ma'lumotlarni yetkazishda qiynalsa, mavzu bilan bog'liq dalillarni yetkazishda yanglishsa - 1-9 ball.

4. Berilgan savollar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lmasa - 0 ball.

****Izoh: Suhbat davomida talabaga qo'yiladigan talablar:***

- Suhbat boshida talaba o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport)ni tanlov komissiyasiga ko'rsatishi;

- Zoom orqali suhbatga talaba o'zining familiya, ismi, sharfini ko'rsatgan holda kirishi, zoom kamerasi faol holatda bo'lishi va talaba to'g'ri kameraga qarashi lozim.

Agarda texnik nosozliklarga ko'ra talaba zoom platformasidan chiqib ketsa, unga suhbatdan o'tish uchun yana bir bor imkoniyat beriladi, faqatgina zoomga qayta kirganida unga boshqa savollar beriladi.